

NAVOIY AN'ANALARI CHUSTIY IJODIDA**Otaxanova Mahmuda Mamadaliyevna****Namangan davlat universiteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi****E-mail:otaxanovamahmuda30@gmail.com Tel:+998936768400****ORCID: 0009-0005-6115-1798****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21368002>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada sohibi devon Chustiy (Nabixon Xo'jayev) ning mumtoz an'analardan, xususan, Alisher Navoiyning boy adabiy tajribalaridan mahorat bilan foydalanganligi, salaf shoir an'alarining Chustiy ijodida aks etishi va davomiyligi tahlil qilinadi. Shuningdek, Navoiy poetikasiga xos bo'lgan g'oyaviy-badiiy tamoyillar — insonparvarlik, komil inson konsepsiyasi, ishq va ma'rifat talqini, hamda badiiy til va obrazlar tizimi Chustiy she'riyatida qay darajada namoyon bo'lishi ilmiy asosda yoritiladi.

Maqolada Chustiy g'azallarida Navoiyga xos an'anaviy timsollar, badiiy san'atlar, qofiya va radif tizimi, mazmun va shakl uyg'unligi masalalari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, shoirning o'ziga xos poetik individualligi, an'anani davom ettirish bilan birga uni yangicha ruhda boyitish jarayoni ochib beriladi.

Tadqiqot natijasida Chustiy ijodi Navoiy maktabining izchil davomchisi sifatida baholanadi hamda o'zbek mumtoz adabiyotidagi an'ana va yangilanish munosabatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: musammat, muxammas, badiiy mahorat, lirika, taxmis, an'ana, chiston, radif.

NAVOI TRADITIONS IN CHUSTIY'S CREATION**Otaxanova Mahmuda Mamadaliyevna****Teacher of the department of uzbek literary criticism Namangan State University****E-mail:otaxanovamahmuda30@gmail.com Phone:+998936768400**

Annotation: The article provides a comparative analysis of the issues of Navoi's traditional symbols, artistic arts, rhyme and radif system, harmony of content and form in Chusti's ghazals. It also reveals the poet's unique poetic individuality, the process of continuing the tradition and enriching it in a new spirit. As a result of the research, Chusti's work is evaluated as a consistent successor of the Navoi school, and the relationship between tradition and renewal in Uzbek classical literature is scientifically substantiated.

Key words: musammat, muxammas, artistic skill, lyrics, takhis, tradition, chiston, radif.

МЕСТО НАВОИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЧУСТИ**Махмуда Мамадалиевна Отаханова****преподавательница кафедры узбекского литературоведения****Наманганский государственный университет****E-mail: otaxanovamahmuda@gmail.com Тел:+998936768400**

Аннотация: В статье представлен сравнительный анализ традиционной символики Навои, художественного мастерства, рифмовки и системы радифов, гармонии содержания и формы в газелях Чусты. Также раскрывается уникальная поэтическая индивидуальность поэта, процесс продолжения традиции и её обогащения

в новом духе. В результате исследования творчество Чустии оценивается как последовательный преемник школы Навои, а взаимосвязь традиции и обновления в узбекской классической литературе научно обоснована.

Ключевые слова: мусаммат, мушаммас, художественное мастерство, лиризм, тахисы, традиция, чистон, радиф.

KIRISH

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida aruz tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Mumtoz adabiyotimiz bilan yangi davr adabiyoti oralig'idagi ko'priki yaratgan va aruzchilik san'ati an'alarini rivojlantirgan Habibiy, Sobir Abdulla, Charxiy kabi ijodkorlar qatorida Chustiy (Nabixon Xo'jayev) ham o'z munosib o'rniga ega bo'lgan asl san'atkordir. Chustiy yigirmaga yaqin she'riy to'plam nashr ettirgan bo'lib, ular mavzular olamining rang-barangligi, janr va uslub jihatidan mukammalligi bilan alohida ahamiyatga ega. Uning „Qo'zg'ol“ (1942), „Lolazor“ (1945), „Hayot zavqi“ (1951), „Gul mavsumi“ (1969), „G'azallar“ (1978), „Yod eting kamtarin Chustiyni ham“ (1984) kabi she'riy majmualari qatorida mumtoz adabiyotimiz an'alaridan oziqlangan „Hayotnoma“ (1988), „Sadoqat gullari“ (1992), „Ko'ngil tilagi“ (1994), „Muhabbatnoma“ (2013) kabi devonlari kitobxonga Sharq axloqi falsafasini singdirishda muhim o'rin tutadi. U mumtoz aruz latofatini zamonaviylik ruhi bilan uyg'unlashtirib, so'z bahridagi javohirlarni olmos qalamida marjondek terdi, xonanda-yu sozandalarga iste'dod yoqlinlarini yuqtirib, betakror qo'shiqlar yaratdi.

Chustiy lirikasi tuyg'ularga, chuqur hissiyot tasviriga, yangi va ko'lamdor fikrlarga, axloqiy-ta'limiy umumlashmalarga boyligi bilan xarakterlidir. Bu borada shoir o'z uslubiga, o'z ovozi va soziga ega bo'lgan, she'riyatda, xususan, g'azalchilikda ajoyib maktab yaratgan ulkan san'atkor hisoblanadi. Chustiyona she'r yozish dunyoviy muhabbatni madh etish, yangi davrni mag'rur kuylash, ona-Vatanni faxrlanib ulug'lash, do'stlik va tinchlikni, sadoqatni falsafiy misralarda tarannum etish demakdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosi hamda Chustiy she'riyati o'rtasidagi badiiy-estetik bog'liqlikni aniqlash maqsadida o'zbek adabiyotshunosligida yaratilgan ilmiy manbalar, monografiyalar va maqolalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Xususan, Navoiy poetikasi, g'azalchilik an'alari, timsol va obrazlar tizimi hamda Chustiy ijodining o'rganilishiga bag'ishlangan ilmiy qarashlar qiyosiy jihatdan ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy, germeneytik tahlil hamda poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali Navoiy an'alarining Chustiy ijodida davom etishi, yangicha talqin etilishi va individual uslub bilan boyitilishi ilmiy asosda ochib berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Barchamizga ayonki, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot durdonalari, xususan, Hazrat Navoiyning boy adabiy merosi necha zamonlardan buyon qalam ahllarining ijodiy parvozlariga turtki bo'lib kelmoqda. Hazrat asarlaridan bahra olib ta'sirlanmagan, o'z ijodiga ulgi olmagan shoir-u nosir bo'lmasa kerak. Chustiy o'z tarjimai holida shunday yozadi: „Men maktab bolalari ichida hammadan durust edim. Bir necha haftada alifbo, haftiyak va boshqa savod kitoblarini o'zlashtirdim. Keyin Qur'oni Karimni, Chahor kutub, Navoiy, Hofiz Sheroziy, Sa'diy, Bedil asarlarini, mantiq, maslak kabi darsliklarni o'rgandim, ikki yilda Kalomullohni to'la yod oldim...“ [1]. Chustiy she'riy guldastasining abadiyatini ta'minlagan omil ham xuddi shu – uning

boy folklor va yozma adabiyotimiz poydevori ustiga qurilganidir. Bu ta'sirni biz shoirning o'z devonlarida tajassum topgan janr rang-barangligida-yu mavzular turfalgida, obrazlar olamidan tortib ohorli uslubigacha – barcha-barchasida ko'ramiz.

Chustiyning tafakkur tadrijida, ijodiy takomilida Hazrat Alisher Navoiyning o'rni beqiyos, shu bois ham shoir she'rlarida “maoniy ahlining sohibqironi” (Nurboy Jabborov ta'biri – M.O.)ga yuksak hurmat ko'rsatib, madh etadi.

Adab mulkin gulistoni – Navoiy,

Adiblar faxri, dostoni – Navoiy.

Qalamga jon kirar madhin yozarda,

G'azallar jismining joni – Navoiy [2], – misralari bilan boshlanuvchi 11 baytli g'azalida Chustiy o'zini buyuk bobokaloniga izdosh deb biladi, asarlarini esa ilhom manbai bo'lganligini ta'kidlaydi:

Ular shogirdlarin shogirdidanman,

Xazina menga – devoni Navoiy...

Mening she'rimga ham andoza bo'ldi,

Yetuk “Mezon ul-avzon”i – Navoiy.

Chustiyning Namanganda tug'ilib, Qo'qonda shoir sifatida tanila boshlagani manbalardan ma'lum. O'tgan asrning 30-yillarida Chustiyning yuksalib borayotgan ijodiy parvozini ko'rgan mamlakat rahbari Usmon Yusupov shoirni poytaxti azim – Toshkentga olib ketadi. Shu vaqtdan e'tiboran Chustiy Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini sobiq ittifoq miqyosida keng tantana qilish maqsadida tuzilgan Navoiy komitetining jonkuyar a'zosi sifatida buyuk mutafakkir ijodini tadqiq va targ'ib etishda munosib faoliyat yuritdi. Keyinchalik “O'zbek tilining izohli lug'ati” va “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati” (1- va 2-jildlarning so'zboshisida Nabixon Xo'jayev nomi qayd etilgan) ni tuzishda ham kamarbasta bo'ldi.

Sir emaski, o'tgan asr boshlarida boy madaniy va adabiy merosimizga ixlosimiz qoralandi, o'tmish madaniyatimizni o'rganish man etildi. “Uzoq davom etgan ana shu inkorchilik sharoitida So'fizoda, Habibiy, Charxiy va Chustiy kabi shoirlar mumtoz adabiyotimizning an'alarini davom ettirdilar va bu an'alarining hayotiyiligini isbot etishdan to'xtamadilar”[1]. Chustiy Alisher Navoiyning mumtoz she'riyatdagi o'ziga xos an'analari izidan borib, bir qancha she'riy to'plam va devonlar yaratdi, mahorat saboqlarini olib, munosib vorisligini isbotladi. Mumtoz adabiyotning g'azal, musammat, mustazod, tarje'band, masnaviy, qit'a, ruboiy kabi janrlarida barakali ijod qildi. “Mumtoz adabiyotimiz, she'riyatimiz an'analari yo'qolib ketishi xavfi vujudga kelgan bir davrda uni asrab qolish, himoya qilish qanchalar og'ir edi. Lekin bolalikdan Rudakiy, Hofiz, Sa'diy. Dehlaviy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil asarlari ruhiyatidagi komil qarashlar asosida kamol topgan Chustiy bunga qat'iy jazm etdi. O'z ko'ngliga quloq solib, so'zi bilan murosas devorlarini qulatib o'ta boshladi” [3]. Aruz vazni eskilik sarqiti sifatida baholangan vaqtlarda ham zamonadan ortda qolib ketganini ko'p bora ta'kidlashsa-da, bir marta bo'lsin, boshqacha uslublarga murojaat qilmay, o'z qalbi ohanglariga quloq tutib, sho'x, o'ynoqi, xalqona, jozibador g'azal-u muxammaslar bitdi. Chustiy XX asr o'zbek adabiyotida Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy kabi ijodkorlar qatorida ko'hna aruz “chirog'ini” o'chirmaslikka intilar ekan, bir vaqtlar Hazrat Navoiy tomonidan “...aruz fannikim, nazm avzonining mezonidur, sharif fandur”, deya ulug'langan aruzni hayotiy a'moliga aylanganligini isbot etdi. Shoir “Bir-biridan yaxshiroq derlar” deb nomlangan muxammasida mumtoz aruzni

“qaynar buloq ” , “bog’ ” , “azim daryo”, deya ulug’laydi. Aruz vazni borasidagi turli muhohasalarga chek qo’yib, xoh aruz, xoh barmoq vazni bo’lsin, ijodkorlarni mas’uliyat bilan qalam tebratishga chorlaydi:

Bu – ma’lum, usta odam: men sira dushman emasman, der,
Valekin mevalarga yo’l topilsa, asta qurtdek yer,
Hijochi-yu aruzchi do’stlar, ig’voga barham ber,
Hunarni yo’lga sol, manzilga etgil, so’ngra ko’krak ker,
Bu fanning har turin ham bir-biridan yaxshiroq derlar [2].

„Aruz vazniga qo’l urmoq” lik ustozlarga ergashish va saboq olish evazigagina yuzaga chiqishi mumkinligini yosh avlodga uqtiradi:

Hijoda mayli Pushkin bo’l, aruzda bo’l Navoiydek,
Qay-u o’lchovda yozsang, xizmat ayla elga, turmay tek,
Va lekin etma manmanlk, ulug’ maqsadga bo’yning eg,
Sharaflil ishga hissa qo’shgali o’lchovni qilmam chek,
Shuning-chun er yuzida bizni yaxshi ittifoq derlar.

Shoir buyuk salafilar ijodiyotidan oziqlansa-da, ular (Bobur) dek bo’la olmasligini quyidagi misralarida ta’kidlaydi, aruz himoyasidagi “haqli shoir” va “nozir” ekanligidan faxr etadi:

Deyolmasman o’zimni maqtanib go’yoki Boburman,
Kamina O’zbekistonda tug’ilgan haqli shoirman,
Taxallus ne kerak ushbu muxammas birla zohirman,
Aruz vaznini o’rganmay buzuvchilarga nozirman,
Meni bu qahqahamdan el hamisha vaqti chog’ derlar.

“Nabixon Chustiy mashhur shoirlardan. Domla, ayniqsa, o’zbek va tojik adabiyotining bilimdoni, jonkuyar targ’ibotchisi ham edi. Jomiy, Navoiy, Sa’diy, Hofiz, Mirzo Bedil, Lohutiy va boshqa klassik adabiyotning ko’zga ko’ringan shoirlari g’azallarini juda chiroyli tahlil etar, misralarda yashiringan teran mazmunni juda ustalik bilan tarjima qilib, chiroyli sharhlab berardi” [3]. Darhaqiqat, Chustiy Hazrat Navoiy asarlari qatidagi nozik ma’no qirralarini-da tez ilg’ay oladigan noyob iqtidor egasi sifatida ham juda iqtidorli bo’lib, qanchadan-qancha ilm zahmatkashlariga, yosh tadqiqotchilarga yordam qo’lini cho’zdi. Mazkur mulohazalarimizga asoslar 2020-yilda shoira M.Zohidova muharrirligida chop etilgan “Yod etingiz kamtarin Chustiyni ham” deb nomlangan kitobda ham o’z aksini topgan.

“Ilg’or adabiy an’analar shunday bir maktabki, unda iste’dodli ijodkor o’z dunyoqarashini takomillashtiradi, uslubini charxlaydi, mahoratini o’stiradi va eng muhimi, kelajagini belgilaydi. An’ana rivojlantirilsa, u bilan muhohasa bo’lsa, musobaqa ruhi yuzaga keltirilsa, u umidbaxshdir”[4]. Chustiyning boshqa shoirlar g’azallariga bog’lagan muxammaslari o’ziga xos bo’lib, umumiy miqdori 107 tani tashkil etgan muxammaslarining 10 tasi taxmis muxammaslar hisoblanadi. Bu turdagi muxammas talabiga binoan g’azalga bog’langan baytlar shakl jihatidagina emas, balki mazmun, g’oyalar ko’lami jihatdan ham g’azal baytlariga muvofiq bo’lmog’i lozim. Natijada har ikki shoir she’ri o’rtasida shunday uyg’unlik yuzaga keladiki, bunday she’r ikki avtor tomonidan emas, balki bir shoir tomonidan yozilgandek tuyuladi. Shoir taxmislarida ana shunday fikrlararo uyg’unlikni, dunyoqarashlardagi birlikni ko’ramiz. Chustiy o’zidan oldingi shoirlardan Ahmad Yassaviy (bitta), Alisher Navoiy (ikkita muxammas) Fuzuliy

(ikkita), Nodira (bitta), Muqimiy (ikkita), Furqat (bitta)larning va zamondoshlaridan Sobir Abdulla (bitta)ning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. O'tmishdagi buyuk ustozlari bilan ijodiy musobaqaga kirishgan shoir butun iste'dodini ishga soladi, ularning munosib izdoshi ekanligini namoyish qiladi. Bu hol Navoiyning:

Meni sargashta jismim dog' ila qon lolazor etmish,
Quyun yoxud to'kulgan lolazor ichra guzor etmish [5]
va

Qaro ko'zum kel-u mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il,- [6]

matla'li, eng mashhur, eng ta'sirchan g'azallariga bog'langan muxammaslarda, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, o'zbek adabiyotida ilk chistonlarni Alisher Navoiy ijod etgan bo'lib, ularning miqdori 10 tani tashkil etgan va bu chistonlar "Xazoyin ul- maoniy" kulliyotidagi "Badoye ul - vasat" devoni tarkibidan o'rin olgan. Nomlari esa quyidagicha: "Qalam", "Tanga", "Igna", "Miqroz", "O'q", "Anor", "Bel", "Yumurtqa", "Poki", "Parvona"[7]. Mazkur kichik asarlar shoirning beqiyos mahoratidan darak berib turadi.

Navoiydan so'ng bu janrning eng go'zal namunalarini Uvaysiy yaratgan. Uning chistonnavislikdagi yetukligini adabiyotshunos olimi I.Adizova o'z tadqiqotlarida [8] batafsil yoritib bergan. Uvaysiyning "Anor", "Yong'oq", "Tun-kun", "Qaychi" nomli chistonlari juda mashhur.

Ta'kidlash joizki, chiston yaratish Navoiy davrida ham, undan keyingi vaqtlarda ham u darajada ommalashmadi. Balki buning boisi xalq og'zaki ijodida o'quvchi aqlini charxlashga qaratilgan topishmoqlarning yetarli darajada mavjudligidadir. Mumtoz an'analar bag'rida shakllanib, badiiy takomil topgan Chustiy ijodiyotida ham chistonlar mavjud. Ularning miqdori 6 ta bo'lib, "Hayotnoma" devoni tarkibiga kiritilgan. "Davot va qalam", "Qalam va qog'oz", "Quyosh", "Chok mashinasi", "Tuhmat", "Mix" nomli chistonlar shular jumlasidandir. Mazkur chistonlar aruz tizimida bitilgan, ikkitasi ("Davot va qalam", "Qalam va qog'oz") bir baytli va to'rttasi ikki baytli ("Quyosh", "Chok mashinasi", "Tuhmat", "Mix") she'rlar hisoblanadi. Turkiy she'rshunoslikda chistonlar qat'iy belgilangan shakl va qofiya tizimiga ega bo'lmagan. Jumladan, Navoiy o'z chistonlarini 2, 3, 4, 5 va 6 baytli holatda yaratgan. Shuningdek, ularning 2 tasi ("Yumurtqa" va "Parvona") ruboiy (a-a-a-a) tarzida, qolgan 8 tasi esa qit'a (a-b-c-b-d-b) shaklida qofiyalangan.

Yumurtqa
Ul huqqai ojkim, qilurlar **gulfom**,
Kim, javfi paniru maskadin to'ldi **tamom**.
Kim ani urishtirmog'idin istar **kom**,
Nokom ani ushatg'usidur ani **nokom**. [7]

Chustiy chistonlari ham turlicha shaklga ega: 2 tasi qit'a, 2 tasi ruboiy va yana 2 tasi esa fard tarzida qofiyalangan va ular mumtoz an'analarga ergashgan holda aruzning hazaj, muzori' va mujtass bahrlarida yozilgan. Bu haqda olim Sh.Rahmonova "XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida aruzning poetik shakl va mazmun takomilidagi o'rni" mavzuidagi dissertatsiyasida batafsil to'xtalgan.[9]

Sug'ormoqqa olib borsam otimni,

Olib suv og'ziga yoshin to'kar ul.[2]

Mazkur chiston 1 baytli bo'lib, hazaji musaddasi mahzuf (ruknlari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V - - - / V - - - / V - -) vaznida yozilgan. Bayt qatiga davot (siyohdon) va qalam predmeti yashirilgan. Odatga ko'ra, muallif chistonlarda berkitilgan narsaning ichki va tashqi xususiyatlariga birma-bir ishora qiladi. Chustiy yuqoridagi chistonida siyohdon va qalamning shakliy xususiyatlari haqida ma'lumotlar berib o'tirmaydi, balki ularning inson hayoti bilan bog'liq vazifalari yuzasidan mulohazalar bildiradi. Bunda shoir har bir ijodkorning doimiy hamrohi – qalamni ot (hayvon)ga qiyoslaydi, oddiy predmetdan badiiy obraz yaratishga harakat qiladi: qalamning siyohga botirilishi-yu, so'ng u orqali muayyan yozuv (xat, rasm, chizma) ning qoralanishi bilan bog'liq jarayonlar ot, otning sug'orilishi, suv ichishi va yosh to'kishi tarzida kitobxon ko'z o'ngida jonli manzara hosil etadi. Qalam haqidagi bu kabi go'zal badiiy lavhalar shoirning yana bir chistonidan o'rin olgan:

Birovni yuziga nayzam urib jafo qilaman,

Bu hikmatim bila ko'p maqsadim ado qilaman.[2]

Javobi qalam va qog'oz bo'lgan ushbu chiston fard shaklida bitilib, mujtassi musammani maxbuni mahzuf (ruknlari va taqti'i: mafoiylun, failotun, mafoiylun failun V-V - / VV- - / V-V - / VV-) vaznidadir. Muallif tashxis, tashbeh, istiora she'riy san'atlari orqali o'quvchini taxayyul olamiga yetaklaydi. Shoirning yuqoridagi chistonlarini o'qir ekanmiz, daf'atan xayolimizga so'z zargari Alisher Navoiyning "Qalam" chistoni keladi, albatta:

Ne lo'lidurki, chun hangoma tutsa,

Qadam boshtin qilib tortar navozir.[7].

Turkiy chiston asoschisi Navoiyning ushbu misralar bilan boshlanuvchi chistoni 6 baytli va qit'a tarzida qofiyalangan bo'lib, hazaji musaddasi mahzuf (ruknlari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V - - - / V - - - / V - -) vaznida yozilgan. Chistonnavis savol bilan boshlangan dastlabki misralarda qalamning shakliy tuzilishiga oid xususiyatlarni tilga olsa, keyingi baytlarda esa uning bajaradigan vazifalariga birma-bir to'xtaladi va kitobxonga jumboqning javobini topishi uchun muayyan sharoit yaratadi. Badiiy mushohadalarga boy, zuvalasi pishiq chistonlari bilan Navoiy chistonchilikda o'ziga xos maktab yaratdiki, bu dargohdan Chustiy ham ma'lum ma'noda saboq oldi.

Shoir Chustiy sherlarida radif qo'llash borasida ham Navoiyga ergashdi. Chustiyning "Sadoqat gullari" nomli devonidagi g'azallarni radif jihatidan tahlil etar ekanmiz, bir so'zli radif qo'llash bu devonda ustunlik qilganiga amin bo'ldik: 161 ta radifli g'azalning 126 tasi bir so'zli, 30 tasi ikki so'zli, 3 tasi uch so'zli va 2 tasi to'rt so'zli radiflar hisoblanadi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, ikki devonda ham bir so'zli radiflardan iborat g'azallar miqdoran ko'p. Bu esa bir tomondan ijodkor badiiy niyatining bir so'z orqali alohida ta'kidlanishi ustun ekanligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan Chustiyning radif qo'llash borasida ham salaflar an'analariga sodiq ekanligini namoyon etadi. So'z mulkining sultoni "Alisher Navoiyning 2600 ta o'zbek tilidagi g'azallarining 1300 dan ortig'ida radiflar qo'llangan" [10] bo'lib, ular tarkibida bir so'zdan iborat radiflarga keng o'rin berilgan:

Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,

Sham' ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach [11].

Aruznavis Chustiy ham Navoiy anʼanalariga ergashib, devonlarida bir soʻzdan tarkiblangan radifli gʻazallarni koʻproq istifoda etdi:

Yozdi Navoiy maqtab qancha asar tilingdan.

Halvochi qildi halvo balkim shakar tilingdan[12].

Yuqoridagi baytda “asar”, “shakar” soʻzlari gʻazalning qofiyasi hisoblanib, ulardan keyin kelgan “tilingdan” soʻzi esa radifdir.

Alisher Navoiyning “Gʻaroyib us-sigʻar” devonini varaqlar ekanmiz, ijodkorning bir radifda bir necha gʻazallar bitganligining shohidi boʻldik. Shoirning “Ango”, “Aro”, “Koʻrub”, “Chekib”, “Erur”, “Hargiz”, “Emas”, “Mening” kabi radifli gʻazallari shular jumlasidandir. Mazkur anʼana shoir Chustiyda ham munosib davom ettirilganligini koʻrishimiz mumkin:

Ishq toridan toʻqilgan atlasim yor ustida.

Ming guli raʼno ochilmish xuddi gulnor ustida[2].

Ushbu matlaʼli gʻazal shoirning “Hayotnoma” nomli devoniga kiritilgan boʻlib, 7 baytdan tashkil topgan. Gʻazal anʼanaviy ishq mavzusida yozilgan, maʼshuqa taʼrif-tavsifiga bagʻishlangan. Aruzning ramali musammani mahzuf vazni (taqteʼsi: - V--/-V--/-V--/-V-; foilotun/foilotun/foilotun/foilun.) da bitilgan. “Yor”, “gulnor” soʻzlari qofiya boʻlsa, “ustida” soʻzi esa radif sanaladi. Devonda xuddi mana shu vazn va radif bilan yozilgan yana bir gʻazal mavjud:

Aylanur davlat qushi oltin tarogʻing ustida.

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Ne tarogʻkim, qush qanoti erdi bogʻing ustida [2]

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Chustiy devonlarini oʻrganganimizda, bir radif bilan bir nechta gʻazallar yozilganligini aniqladik va ularga “Boʻlsangiz” (3 ta), “Dema” (2 ta), “Boʻlmasa” (4 ta), “Boʻling” (2 ta), “Ustiga” (2 ta), “Menga” kabi radifli gʻazallarni misol qilib keltira olamiz.

Chustiy gʻazal mulkining sultoniga nafaqat ijod olamida havaslanib ergashdi, balki yuksak fazilatli Navoiy shaxs sifatida ham shoir uchun butun umr komil inson darajasida boʻlib qolaverdi. Quyidagi satrlarda fikrimiz oʻz tasdigʻini topadi, bizningcha:

Agar inson uchun sarf etsang umringni Navoiydek,

Toparsan yangi umr-u oʻtgan umringga achinmaysan (2).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy tomonidan asos solingan badiiy-estetik tamoyillar Chustiy ijodida izchil davom ettirilganini kuzatish mumkin. Chustiy oʻz asarlarida Navoiy anʼanalariga xos boʻlgan yuksak maʼnaviyat, insonparvarlik, ishq va komillik gʻoyalarini zamon ruhiga mos holda talqin etadi. Ayniqsa, gʻazal janrida qofiya, radif, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, ramziy obrazlar orqali chuqur falsafiy fikrlarni ifodalash borasida u Navoiy maktabining munosib davomchisi sifatida namoyon boʻladi.

Shu bilan birga, Chustiy ijodi faqat taqlid doirasida qolib ketmay, balki anʼanani ijodiy oʻzlashtirish orqali yangicha poetik qarashlarni yuzaga chiqaradi. Bu esa uning adabiy merosini oʻzbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida muhim boʻgʻin sifatida baholash imkonini beradi. Demak, Navoiy anʼanalari Chustiy ijodida nafaqat saqlanib qolgan, balki yangi mazmun va badiiy shakllar bilan boyitilgan holda rivoj topgan. Umuman, Nabixon Chustiy sheʼrlari ustidagi kuzatishlarimiz shoirning oʻzbek mumtoz sheʼriyatida ustuvor boʻlgan anʼanalar va

tajribalardan ilhomlanganligini va ulardan ijod jarayonida samarali foydalanganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Чустий. Ўтмиш ва хотиралар // Чустий. Сайланма. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Хўжаев Б. – Тошкент: Адабиёт, 2024. – В. 465.
2. Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 448 б.
3. Ёд этингиз камтарин Чустийни ҳам // Шоир Чустий ижодига чизгилар, хотиралар, эсселар, бағишловлар. Масъул муҳаррир: М. Зоҳидова. – Тошкент: MASHHUR-PRESS, 2020. – 272 б.
4. Наққул I. Abadiyat farzandlari. – Тошкент: Yosh gvardiya, 1990. – 192 б.
5. http://navoi.natlib.uz:8101/uz/xazoyin_ul_maoniy_garoyib_us_sigar_uchinchi_tom/gazallar/gazallar_201_300/
6. <https://tafakkur.net/qaro-kozum/alisher-navoiy.uz>
7. Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 5-жилд. Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. –Б.517-521.
8. Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. Монография. – Тошкент: Муҳаррир, 2020. – 268 б.
9. Раҳмонова Ш. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеъриятида арузнинг поетик шакл ва мазмун тақомилидаги ўрни: Филол. фан. бўйича фал. докт.(PhD) ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 167.
10. Орзибеков Р. Ўзбек лирик шеърияти жанри. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 22.
11. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Биринчи том. Ғаройиб ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1963. –Б.126.
12. Чустий. Садоқат гуллари. Девон. – Тошкент: Внешторгиздат, 1992. – 344 б.